

## **DRABBLLARNI SAHNALASHTIRISH ASOSIDA BO‘LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

**Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada drabbllarni sahnalashtirish asosida bo‘ljak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari yoritilgan bo‘lib, sahnalashtirish uchun drabbl tanlash va uni tahlil qilish, sahnalashtirish usullari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** san’at, rejissyor, rejissura, drabbl, etyud, kasbiy kompetentlik, adabiy asar, tahlil.

Drabbl asosida bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish amaliyoti pedagogik-tajriba sinov jarayonida ilk marotaba tatbiq etilgan bo‘lib, drabbl hajm jihatdan kichik bo‘lsada, lekin unda katta ma’no yashiringanligi bilan talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Drabbl – bu eng ko‘pi 100 ta so‘zdan iborat kichik badiiy asar. Drabbl janrining maqsadi qisqalik hamda yozuvchining voqeani cheklangan doirada qiziqarli va ma’noli tasvirlash mahoratini sinashdir. Ushbu atama 1980-yillarda Angliyada ilmiy fantastika muxlislari tomonidan yaratilganligi aytildi [1].

Talaba drabbl bilan tanishar ekan, unda yashiringan tub ma’noni topishi birinchi talabdir. Qayd etib o‘tish lozimki, talaba tomonidan o‘qilayotgan har bir adabiy asar sahnalashtirilishi uchun mutolaa qilinadi va shu maqsadda sahnalashtirish rejasi tuziladi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida O‘zDSMI 60211200 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi) ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi San’atbek Fazliddinov rejissyorlik etyudini sahnalashtirish uchun Ernest Xemingueyning “Hayrat” drabblini tanladi.

Drabbl quyidagicha: “*U xotinining qotiliga sut ichirardi*”.

Beshta so‘zdan iborat mazkur drabblni sahnalashtirish murakkab jarayon. Negaki drabblda personajlar, berilgan shart-sharoit, syujet, eng muhimi konflikt yashiringan. Shu sababli kurs badiiy rahbari tomonidan talabaga bo‘lajak rejissyorning kasbiy komponentligini drabbllar asosida rivojlantirishga qaratilgan usul tavsiya etildi. Talaba tomonidan kurs badiiy rahbarining metodik tavsiyasiga asosan mazkur drabbl quyidagi tartibda amalga oshirildi va sahnalashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

### **Drabbllar asosida bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari**

Muammo	Muammoni hal etish usullari	Natija
<b>Tub ma’noni aniqlash</b>	<p>“U” – bu kim?</p> <p>“Xotinining” – demak “U” erkak ishi.</p> <p>“Qotiliga” – demak kimdir o‘ldirilgan.</p> <p>“Xotinining qotiliga” – demak “U”ning xotini o‘ldirilgan.</p> <p>“U” – o‘ldirilgan xotinning eri.</p> <p>“Qotiliga sut ichirardi” – demak u chaqoloq.</p> <p>“U”, “Sur ichirardi” – demak “U” chaqoloqning otasi.</p> <p>“U” – ota, “Xotining” – ona, “Xotining qotili” – farzand, chaqoloq.</p> <p>“Qotil” – chaqoloq, qanday qilib chaqoloq qotillik qilishi mumkin? Demak, chaqoloq tug‘ilish jarayonida “qotillik” yuz bergen.</p>	Chaqoloq tug‘ilayotgan vaqtida onasi olam o‘tadi. Otasi chaqoloqqa sut bermoqda.
<b>Mavzuni aniqlash</b>	<p>Drabblni nomi nima uchun “Hayrat”?</p> <p>“Hayrat” so‘zning lug‘aviy ma’nosini aniqlash, inson nima uchun hayratlanishi mumkin?</p> <p>Tug‘ilish va o‘lim, quvonch va qayg‘u chorrahasidagi inson taqdiri qanday bo‘lishi mumkin?</p>	Farzandi tug‘ilishi quvonch, xotini o‘limi qayg‘u. Nima qilishni bilmay qolgan ota – “Hayrat”da.
<b>G‘oyani aniqlash</b>	<p>Bu voqeada asosiy personaj kim? Asosiy personaj – veqe markazidagi ota.</p> <p>Uning avvalgi va keyingi taqdiri qanday? Voqeadan avval u baxtli ota. Voqeadan keyin taqdirga tan bergen ota.</p>	Taqdirdan ochib bo‘lmaydi.
<b>Oliy maqsadni aniqlash</b>	<p>Oliy maqsad qaysi jarayon yoki qaysi personajdan aniqlanishi mumkin? Voqe markazidagi ota taqdiridan oliy maqsadni aniqlash lozim.</p>	Oilaga sadoqatli bo‘lish

<b>Drabblni rangini aniqlash</b>	Mazkur drabblni qaysi rangda tasavvur etish mumkin? Oq – poklik, ezgulik, qora – yovuzlik, xavotir, qizil – jo‘shqinlik, yashil – yangilanish, tiriklik, ko‘k – tiniqlik, sariq – ko‘nikuvchan, qiziquvchan va h.k. Voqeada ezgulik va yovuzlik to‘qnash kelgan.	Oq va qora
<b>Drabblni shaklini aniqlash</b>	Drabblni qaysi shaklga o‘xshatasiz? Shabl nima uchun muhim? Shabl sahnalashtirishda muhim. Drabblida to‘rtta muhim jihat bor. Birinchisi oila, ikkinchisi sadoqat, uchinchisi tug‘ilish, to‘rtinchisi o‘lim.	To‘rtburchak
<b>Drabllning qaysi buyumga o‘xshashligi</b>	Drabblni qaysi buyumga o‘xshatasiz. Nimaga o‘yshaydi. Drabblida ezgulik va yovuzlik chorrahasidagi inson taqdiri berilgan. Shuningdek, drabllning rangi oq va qora, shakli to‘rtburchak.	Shaxmat
<b>Drabblning libosini aniqlash</b>	Drabblni libosi qanday bo‘lishi lozim? Libosini aniqlash nima uchun kerak. Drabblni libosi voqeaga asosan – oq yo‘rgak, oq kafan. Demak drabllni libosi yo‘rgak va kafan. Umumiyl ma’noda oq libos. Drabblni libosini aniqlash sahnalashtirish uchun zarur.	Oq libos
<b>Drabllning berilgan shart-sharoitini aniqlash</b>	Berilgan shart-sharoit nima? Bu asardagi voqea qayerda, qaysi davrda, qanday holatda sodir etilayotganligi. Voqea qayerda bo‘lmoqda? Agar farzand tug‘ilishi va uning omon qolishi, onaning tug‘ruq holatida vafot etishi va undan otaning hayratda qolishini nazar tutilsa – voqea tug‘ruqxonada bo‘lmoqda. Tug‘ruqxonaning aynan qaysi qismida bo‘lmoqda? Otaning o‘g‘ilga sut berish jarayoni tasvirlanganligidan voqea operatsiya xonasi yo‘lagida bo‘lib o‘tmoqda. Voqea qaysi davrda bo‘lmoqda? Tug‘ruhxona va undagi operatsiya jarayonidan voqeaning shu kunlarda bo‘layotganligini bilib olish mumkin.	Voqea tug‘ruhxonaning operatsiya bo‘limi yo‘lagida, shu kunlarda bo‘lib o‘tmoqda.
<b>Drabbl syujetini aniqlash</b>	Drabbl syujeti nima haqida? Tug‘ruqxonada operatsiya jarayoni. Operatsiyada onaning o‘lishi, farzandning tug‘ilishi. Ikki o‘t orasidagi otaning hayrati. Konflikt qanday sodir bo‘ladi? Konflikt sodir bo‘lish uchun hamshira qiz personoji qo‘shiladi. U farzand tug‘ilganligi, onaning o‘limi haqida xabar beradi.	Ota yo‘lakda operatsiya natijasini kutmoqda. Hamshira qiz yugurgan holda boshqa xonadan kerakli dorilarni olib qayta kiradi. Chaqoloq ovozi eshitiladi. Hamshira otaga chaqoloqni olib chiqib beradi. Ota xursand holda chaqoloqni bag‘riga bosadi. Hamshira qiz otaga idishda

		sut berdi. Ota hayron. Hamshira qiz otaga xotining ro‘molini beradi. Ota bo‘lgan voqeani tushunadi. Chaqoloq yig‘laydi, ota unga sut beradi, ko‘zlarida hayrat.
<b>Drabbl personaj-larinining libosini aniqlash</b>	Libos qanday tanlanadi? Sahna libosi personajning yoshi, kasbi, voqea joyi, voqeadiagi vaziyatga qarab tanlanadi. Voqea tug‘ruqxonada bo‘lmoqda.	Ota – odatiy, ko‘cha libosida. Yelkasiga xalat yopingan. Hamshira – oq halat va bosh kiyimida. Chaqaloq – oq yo‘rgakda.
<b>Sahna bezagini aniqlash</b>	Sahna bezagi (maket) qanday tayyorlanadi? Voqea joyi, voqeadiagi vaziyatga qarab tanlanadi. Voqea tug‘ruqxonada bo‘lmoqda.	Tug‘ruqxonaning operatsiya bo‘limi yo‘lagi.

Yuqoridagi barcha komponentlar aniq tahlil qilinib, o‘z yechimini topgach kurs badiiy rahbari tomonidan mazkur drabbl sahnalashtirilishga tavsiya etiladi. Qayd etilgan talablar asosida pedagogik tajriba-sinov jarayonida O‘zDSMI 60211200 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi) ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi Behro‘zjon Tursunov Qobilbek Ziyoning “Orzu” drabbli asosida mustaqil rejissyorlik ishini sahnalashtirgan.

Drabbl quyidagicha: “*Men katta bolsam sòzga chechan, tili òtkir notiq bòlama-a-a-a-a-n!!! – deya ichida baqirib aytdi, soqov bolakay*”.

1-rasmdagi QR code skanerlash orqali “Hayrat” drabbli, 2-rasmdagi QR code skanerlash orqali “Orzu” drabbli asosida ishlangan etyudlar bilan tanishish mumkin (1-, 2-rasmlarga qarang).



**1-rasm. “Hayrat” drabbli asosida etyud**



**2-rasm. “Orzu” drabbli asosida  
etyud**

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, drabbllarni sahnalashtirish asosida bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan tavsiya etilayotgan usullar pedagogik tajriba-sinov jarayonida amaliyotga tatbiq etilgan, talabalarning qiziqishini orttirgan va samaradorlikka erishilgan.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Drabbl>